

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi

Birinchi vitse-prezidenti,

Xarid komissiyasi raisi



R. S. Irmatov

2024-yil “ ”

ELEKTRON SHAKLDA ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLASH O‘TKAZISH BO‘YICHA XARID QILISH HUJJATLARI

**O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi tizimidagi Milliy futbol makrazi tuzilmasidagi
Futbol terma jamoalar markazi uchun fitnes-uskunalar to‘plamlarini xarid qilish
bo‘yicha**

Buyurtmachi: O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi

TOSHKENT – 2024-YIL

MUNDARIJA

- I. Tanlash ishtirokchisi uchun yo‘riqnoma.**
- II. Tanlash hujjatlarining texnik qismi.**
- III. Tanlash hujjatlarining narx qismi.**
- IV. Shartnoma loyihasi.**

TANLASH BO‘YICHA AXBOROT JADVALI

Xarid predmeti	O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi tizimidagi Milliy futbol makrazi tuzilmasidagi Futbol terma jamoalar markazi uchun fitnes-uskunalar to‘plamlarini xarid qilish bo‘yicha
Lotlarga bo‘linishi	bo‘linmaydi
Xaridning reja-jadvali	2025-yilning yanvar-mart oyi
Savdolari o‘tkazish davri (oy)	2024-yilning dekabr oyi
Moliyalashtirish manbasi	Budjet mablag‘lari doirasida
Boshlang‘ich narxi	181 100 yevro QQS bilan (bir yuz sakson bir ming yuz yevro)
Tanlash taklifining ta‘minoti miqdori	Umumiy summaning 0% miqdori
To‘lov shartlari	Buyurtmachi shartnoma kuchga kirgan vaqtdan boshlab 15 (o‘n besh) bank kuni ichida ijrochining hisobvarag‘iga shartnoma summasining 30 (o‘ttiz) foiz miqdorini oldindan to‘lab beradi. Shartnoma summasining qolgan 70 (yetmish) foiz qismini bajarilgan ishlar to‘g‘risidagi hisob-varaq-faktura va bajarilgan ishlar dalolatnomasiga asosan to‘lab beriladi.
To‘lov valyutasi	Mahalliy ishtirokchilar (O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari) va chet davlat ishtirokchilari (O‘zbekiston Respublikasi norezidentlar) uchun: Yevro.(EUR).
Yetkazib berish/xizmat ko‘rsatish joyi va shartlari	O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent viloyati, Yuqorichirchiq tumani, «G.T. Xvan» MFY, Manaviyat ko‘chasi 83-uy
Yetkazib berish/xizmat ko‘rsatish muddati (vaqti)	Oldindan to‘lov amalga oshirilgan yoki akkreditiv ochilgandan so‘ng 90 kun ichida oshirilishi lozim
Tanlash taklifining amal qilish muddati	Takliflar berilgan kundan boshlab kamida 90 kun
Tanlash ishtirokchilariga qo‘yiladigan talablar	Tanlashda qatnashish uchun qo‘yiladigan shartlarni bajargan, mulkchilik shaklidan qat‘iy nazar, O‘zbekiston Respublikasining rezidenti yoki norezidenti bo‘lgan barcha jismoniy yoki yuridik shaxslar ishtirok etishi mumkin.
Tanlash takliflarini taqdim etish muddati	5 ish kuni
Tanlash o‘tkazish bo‘yicha Xarid komissiyasining mas‘ul kotibi (yoki ishchi organi)	O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, O‘zbekiston ko‘chasi, 98a-uy. Tel.: +998 71 230-90-42 (90-51). e-mail: uzb@the-afc.com. Mas‘ul: N.Maxmudov, Xarid komissiyasi kotibi: Xaydarov Davron

I. TANLASH ISHTIROKCHISI UCHUN YO‘RIQNOMA

- 1 Umumiy qoidalar**
- 1.1** Tanlash bo‘yicha mazkur Xarid qilish hujjatlari (keyingi o‘rinlarda — tanlash hujjatlari) O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni (keyingi o‘rinlarda — Qonun), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.
- 1.2** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 7 apreldagi PQ-115-son va 2024 yil 5 iyuldagi PQ-273-son qarorlari
- 1.3** Budjet mablag‘lari doirasida
- 1.4** Tanlashning boshlang‘ich narxi:
- 1.4.1.** 181 100 yevro QQS bilan (bir yuz sakson bir ming yuz yevro)
- 1.4.2.** Tanlash taklifida ko‘rsatilgan narxlar boshlang‘ich narxdan oshmasligi kerak.
- 1.5** Xarid komissiyasining majlislari Xarid komissiyasi a‘zolari hozirligida yuzma-yuz o‘tkaziladi. Shuningdek, ERI (videokonferensiyalar, telekonferensiyalar va hokazo) shaklida o‘tkazilishi mumkin.
Xarid komissiyasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda masofadan turib ovoz berish huquqiga ega.
- 1.6** Ushbu tanlash hujjatlarida foydalaniladigan asosiy tushunchalar:
Avans to‘lovi – qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachi va Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi tomonidan kiritiladigan, vositachilik yig‘imini va zakalatini o‘z ichiga olgan moliyaviy mablag‘lar summasi;
Taklifni ta‘minlash - buyurtmachining talabiga binoan ishtirokchi tomonidan takliflar va majburiyatlarning garov, kafolat, zakalat tarzida yoxud Qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa usulda ta‘minlanishi;
Davlat xaridlari elektron tizimining operatori (keyingi o‘rinlarda — operator) – O‘zbekiston Respublikasi Tovar xom-ashyo birjasi-davlat Xaridlarining subyektlariga davlat Xaridlarining elektron tizimlarida Xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish bilan bog‘liq xizmatlar ko‘rsatadigan, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan maxsus vakolatli yuridik shaxsdir;
Shaxsiy kabinet - elektron davlat Xaridlarida ishtirok etishni hamda zarur axborotni joylashtirishni va undan foydalanishni ta‘minlaydigan, buyurtmachi yoki Xarid qilish tartib-taomili ishtirokchisining maxsus axborot portaldagi individual sahifasi;
Hisob-kitob kliring palatasi (bundan buyon matnda HKKP deb yuritiladi) — avans to‘lovlarini deponentlash va ularni hisobga olish yo‘li bilan shartnomalar bo‘yicha majburiyatlarni bajara oladigan ishtirokchilarni elektron Xaridlarga kirishini ta‘minlovchi Operatorning tarkibiy bo‘linmasi;
Davlat Xaridlarining elektron tizimi (bundan buyon matnda elektron tizim deb yuritiladi) — elektron davlat Xaridlari jarayonida davlat Xaridlari subyektlarining hamkorligini, elektron davlat Xaridlari jarayonidagi Xarid qilish tartib-taomillari o‘tkazilishini ta‘minlaydigan tashkiliy, axborotga oid va texnik yechimlarning dasturiy majmui;
Elektron davlat Xaridlari — axborot- kommunikatsiya

- texnologiyalaridan foydalangan holda davlat Xaridlarini amalga oshirish shakli.
- 2 Elektron tanlash tashkilotchilari**
- 2.1** Tanlash buyurtmachisi: O‘zbekiton futbol assotsiatsiyasi (keyingi o‘rinlarda — **“Buyurtmachi”**).
- 2.2** Tanlash o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiton futbol assotsiatsiyasi Xarid komissiyasi
- 2.3** Shartnoma egasi: O‘zbekiton futbol assotsiatsiyasi
- 2.4** Elektron tanlash o‘tkazadigan operatorning nomi va uning veb-saytiga havola: www.ufa.uz
- 2.5** Tanlash, kamida besh nafar a‘zodan iborat tarkibda buyurtmachi tomonidan tashkil qilingan Xarid komissiyasi (keyingi o‘rinlarda — tanlash komissiyasi) tomonidan o‘tkaziladi.
- 3 Elektron tanlash ishtirokchilari**
- 3.1** Elektron tanlash ishtirokchisi (bundan buyon matnda ishtirokchi deb yuritiladi) elektron tanlashda davlat Xaridlarini bajarish uchun talabgor sifatida ishtirok etayotgan, O‘zbekiston Respublikasining rezidenti yoki norezidenti bo‘lgan jismoniy yoki yuridik shaxsdir.
- 3.2** Ishtirokchi:
- davlat Xaridlari to‘g‘risidagi axborotdan Qonunchilikda nazarda tutilgan hajmda foydalanish;
 - Buyurtmachiga yoki u tomonidan jalb etilgan ixtisoslashgan tashkilotga muayyan davlat Xaridlarining tartib-taomillari, ularni o‘tkazish talablari va shartlari bo‘yicha so‘rovlar berish hamda ulardan tushuntirishlar olish;
 - Davlat Xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyaga Xarid qilish tartib-taomillari natijalari yuzasidan shikoyat qilish;
 - Qonunchilikka muvofiq takliflarga o‘zgartirishlar kiritish yoki ularni qaytarib olish huquqiga ega.
- 3.3** Ishtirokchi:
- davlat Xaridlari to‘g‘risidagi Qonunchilik talablariga rioya etishi;
 - Xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq bo‘lgan takliflar va hujjatlarni taqdim etishi hamda taqdim etilgan axborotning ishonchliligi uchun javobgar bo‘lishi;
 - asosiy benefitsiar mulkdor to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor etishi;
 - G‘olib deb topilgan taqdirda, Buyurtmachi bilan Qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda shartnoma tuzishi shart.
- 3.4** Buyurtmachi bilan manfaatlar to‘qnashuvi bo‘lgan ishtirokchi davlat Xaridlari ishtirokchisi bo‘la olmaydi.
- 3.5** Ishtirokchi davlat Xaridi ijrochisi g‘olib deb e‘tirof etilgan taqdirda: tanlash savdolari yakunlari bo‘yicha G‘olib deb rasman e‘lon qilingan kundan e‘tiboran uch kun mobaynida davlat Xaridlari maxsus axborot portalida tegishli ma’lumotlarni joylashtirish orqali bevosita yoki bilvosita 25 foiz yoki undan ko‘p aksiyalarga (ulushga) haqiqatdan nazorat qilishga ega bo‘lgan o‘zining yakuniy manfaatdor shaxslari (benefitsiarlari) to‘g‘risidagi axborotlarni oshkor qilishlari; uzlarining veb-saytlarida va maxsus axborot portalida doimiy asosda tanlash savdolari yakunlari bo‘yicha imzolangan shartnoma majburiyatlari bajarilishi haqidagi ma’lumotlarni joylashtirib borishga majbur.
- 4 Elektron tanlashga kiritish**
- 4.1** Zakalat mavjud emas.
- 4.2** Buyurtmachi va ishtirokchilar elektron Xaridlardagi ishtiroklarini elektron raqamli imzolaridan (bundan buyon matnda ERI deb yuritiladi) foydalangan holda amalga oshiradi. Buyurtmachi va ishtirokchi tomonidan ERIdan foydalanish, elektron tizimda tuziladigan shartnomalarni haqiqiy deb topish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari elektron davlat Xaridlari tizimida ro‘yxatdan utadilar va (elektron davlat Xaridlari tizimi imkoniyatlaridan kelib chiqib, ERI kaliti bo‘lmagan taqdirda) shaxsiy kabineti orqali tijorat takliflarini yuboradilar.

- 4.3** Elektron tizimi avtomatik rejimda quyidagilarni amalga oshiradi:
- davlat buyurtmachisi va ishtirokchiga kiritilgan avans summasiga muvofiq har bir lot bo‘yicha elektron davlat Xaridlaridan foydalanish imkoniyatini yaratish;
 - elektron davlat xaridlarini o‘tkazish;
 - ishtirokchilarni aniqlash va shartnomani shakllantirish;
 - elektron davlat Xaridlari ishtirokchilarining takliflarini baholash uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar bilan davlat buyurtmachisi va Xarid komissiyasini ta’minlaydi
- 4.4** Ishtirokchilarni Xaridga kiritish ular tomonidan portaldagi so‘rovnoma-arizani to‘ldirish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Ishtirokchilarni Xaridga kiritish, ularning quyidagi mezonlarga muvofiq bo‘lganda amalga oshiriladi:
- shartnoma tuzish uchun Qonuniy huquqqa egaligi; soliqlar va yig‘imlardan to‘lash bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlikning mavjud emasligi;
 - o‘ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi;
 - Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda qayd etilmaganligi.
 - Soliq organlari tomonidan berilgan ERI mavjudligi ishtirokchini shartnoma tuzishga huquqini belgilaydi.
 - Ishtirokchi so‘rovnoma-arizada unga nisbatan qo‘llanilgan bankrotlik tartib-taomillari mavjud emasligi hamda soliq va yig‘imlardan to‘lash bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlikning mavjud emasligi haqida ma’lumotlarni tasdiqlaydi.
 - Ishtirokchi tomonidan so‘rovnoma to‘ldirilgandan so‘ng, portal tomonidan Insofsiz ijrochilarning yagona reyestri ma’lumotlarini unda ishtirokchi haqida yozuv mavjud emaslik holati tekshiriladi.
- 4.5** **Operator:**
- buyurtmachilar va ishtirokchilarga XKKIda alohida shaxsiy hisobraqamlar ochadi;
 - buyurtmachilar va ishtirokchilarga shaxsiy kabinetlar tashkil etadi
- 5** **Tanlashda ishtirok etish va taklif ta’minotini taqdim etish tartibi**
- 5.1** Taklifning ta’minot usuli, shu jumladan tanlash ishtirokchisining kelishilgan muddat davrida uz taklifini qaytarib olmasligiga kafolat beruvchi pul zakalatini kiritish va qaytarib olish tartibi hamda miqdori elektron davlat Xaridlari tartib-taomillarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq belgilanadi. Mazkur lotda Zakalat mavjud emas.
- 5.2** Elektron tanlashda ishtirok etish uchun ishtirokchi:
- etender.uzex.uz saytida ro‘yxatdan utadi va ro‘yxatdan utish sahifasida kerakli bo‘limlarni (mijoz turi, shaxsiy ma’lumotlari, aloqa ma’lumotlari) to‘ldiradi. “Yakka tartibdagi tadbirkor” va “Rezident” tizimda faqatgina elektron raqamli imzodan (ERI) foydalanib ro‘yxatdan utishi mumkin bo‘ladi;
 - ro‘yxatdan utish jarayoni tugagandan so‘ng, XKKIda ishtirokchi uchun shaxsiy hisob-varaq ochiladi. Ishtirokchilar ularning XKKIdagi hisobraqamlarida avans To‘lovining yetarli miqdori mavjud bo‘lgan taqdirdagina elektron davlat Xaridlarida ishtirok etadilar;
 - tanlash shartlari bilan batafsil tanishgandan so‘ng ishtirokchi elektron tanlashda ishtirok etish uchun ariza beradi va “Umumiy ma’lumot” sahifasida, “Tovarlar va buyumlar”, “Talablar” bo‘limlarida zarur ma’lumotlarni to‘ldiradi.
- Talablar bo‘limida ma’lumot kiritish jarayonida ishtirokchidan biror

bir talab bo'yicha tasdiqlovchi hujjat so'ralgan bo'lsa, hujjatni fayl ko'rinishida (PDF formatda) yuklash zarur.

5.3 Ishtirokchilarning zakalati operator tomonidan G'olib aniqlangunga qadar band qilib qo'yiladi (agarda ishtirokchi tomonidan zakalat kiritish zarurati belgilangan bo'lsa). Elektron tanlash tanlash G'olibining zakalati shartnoma tuzilguniga qadar band qilib qo'yiladi. Bunda G'olib shartnoma tuzishni rad etgan taqdirda, unga zakalat summasi qaytarib berilmaydi. Mazkur lotda zakalat mavjud emas.

6 Tanlash takliflarini baxolash tartibi

6.1 Elektron tanlash Xarid komissiyasi tomonidan belgilangan muddatda o'tkazilganda elektron tizim avtomatik ravishda ishtirokchilar tomonidan joylashtirilgan va ularning tanlash takliflarini tashkil etuvchi elektron hujjatlarni o'rnatish imkoniyatini beradi.

Ishtirokchi tomonidan biriktirilgan hujjatlar uning tanlash taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlariga mos bo'lishi hamda elektron tizimdagi to'ldirilishi majburiy bo'lgan elektron maydonlar to'ldirilgan bo'lishi kerak. Elektron tizim ishtirokchi taklif etgan narxni boshlang'ich narxga muvofiqligini va elektron maydonlarning to'ldirilganligini hamda biriktirilgan fayllarning mavjudligini tekshiradi. Ishtirokchi tomonidan taklif etilgan narx boshlang'ich narxdan yuqori bo'lsa, shuningdek, to'ldirilmagan maydonlar mavjud bo'lsa yoki biriktirilgan fayllar to'liq bo'lmasa, elektron tizim rad etish sababini ko'rsatgan holda ishtirokchining tanlash taklifini rad etadi. Biriktirilgan hujjatlardagi ma'lumotlarning ishtirokchining tanlash taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiqligini tekshirish Xarid komissiyasining mas'ul kotibi tomonidan amalga oshiriladi.

6.2 Tanlash takliflarini baholash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

tanlash taklifining tanlash hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga mos ravishda rasmiylashtirilganligini tekshirish;
ishtirokchining malaka talablarga (tanlash hujjatlarida nazarda tutilgan bo'lsa) muvofiqligini baholash;
tanlash taklifining texnik qismini baholash; tanlash taklifining narx qismini baholash.

Bunda elektron tizim tanlash taklifining malaka, texnik va narx qismlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlarni tanlash taklifining oldingi qismi baholanishi yakunlangandan so'ng ketma-ketlik bilan oshkor qilinishini ta'minlaydi.

6.3 Elektron tanlash ishtirokchilari tomonidan tuziladigan hujjatlar ro'yxati ushbu yo'riqnomaning 1-ilovasida (№ 1, 2, 3, 4, 5, 6 shakllar) keltirilgan.

6.4 Tanlash takliflarini baholash va tanlash G'olibini aniqlash tanlash hujjatlarida (2-ilova) belgilangan ketma-ketlik, tartib, mezonlar va uslublar asosida amalga oshiriladi

6.5 Ishtirokchi quyidagi hollarda tanlashda ishtirok etishdan chetlashtiriladi:

- u to'g'risida Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda qayd mavjud bo'lsa;

- unda soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lsa;

- o'ziga nisbatan bankrotlik tartib-taomillari joriy etilgan bo'lsa;

- ishtirokchi Xarid qilish hujjatlarining malaka, texnik va tijorat talablariga javob bermasa;

- ishtirokchi davlat Xaridlari jarayonida davlat buyurtmachisi tomonidan biror-bir xatti-harakatning sodir etilishiga, qaror qabul qilinishiga yoki biror-bir Xarid qilish tartib-taomilining qo'llanilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida davlat buyurtmachisining yoki boshqa davlat organining istalgan hozirgi yoki sobiq mansabdor

shaxsiga yoki xodimiga har qanday shakldagi haqni, ishga yollash to'g'risidagi taklifni yoxud istalgan boshqa qimmatbaho ashyoni yoki xizmatni bevosita yoxud bilvosita taklif qilsa, bersa yoki berishga rozilik bildirsa;

- ishtirokchi raqobatga qarshi harakatlarni sodir etsa yoki Qonunchilikni buzgan holda manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqarsa, shuningdek affillanganlik hollari aniqlansa.

- ishtirokchisi tomonidan korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha arizani taqdim etmagan bo'lsa;

- ishtirokchi shartnoma tuzish huquqiga ega bo'lmasa;

- imtiyozli soliq rejimidagi moliyaviy Operatsiyalarni amalga oshirishda ma'lumotlarni oshkor qilish va taqdim etishni nazarda tutmaydigan davlatlar yoki hududlarda (ofshor hududlar) ro'yxatdan o'tkazilgan yoki mazkur hududlarda bank hisobraqamlari ochgan ishtirokchilar;

- ishtirokchi barcha zarur hujjatlar to'plamini belgilangan muddatda taqdim etmasa yoki o'z vaqtida taqdim etilgan hujjatlar to'plami tanlash hujjatlari talablariga javob bermasa;

- ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlardagi axborotning ishonchsiz ekanligi aniqlangan taqdirda.

Ishtirokchini Xarid qilish tartib- taomillarida ishtirok etishdan chetlatish to'g'risidagi qaror va buning sabablari Xarid qilish tartib-taomillari haqidagi hisobotga kiritiladi hamda ular haqida tegishli ishtirokchiga darhol xabar beriladi.

6.6 Agar tanlash taklifi Qonunning va tanlash hujjatlarining talablariga muvofiq kelsa, u tegishli tarzda rasmiylashtirilgan deb topiladi. Tanlash taklifi tanlash hujjatlarining talablariga muvofiqligi yoki nomuvofiqligi bo'yicha Xarid komissiyasi mas'ul kotibining qarori uning asoslangan sabablari bilan Xarid komissiyasi tomonidan tasdiqlanishi lozim.

Ishtirokchining tanlash taklifi talablarga mos kelmaganligi to'g'risidagi qaror, ushbu qaror qabul qilingan kunda ishtirokchining shaxsiy kabinetiga yuboriladi.

6.7 Tanlash takliflarini baholash vaqtida Xarid komissiyasi elektron tanlash ishtirokchilaridan ularning tanlash takliflari yuzasidan tushuntirishlar so'rashga haqli. Mazkur jarayon elektron shaklda o'tkaziladi.

Tushuntirish berish jarayonida berilgan taklif va narx bo'yicha o'zgartirishlarga yo'l qo'yilmaydi.

6.8 Tanlash ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash muddati takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran 10 (o'n) ish kunidan oshishi mumkin emas

7 Elektron tanlashda ishtirok etish uchun taklif berish

7.1 Tanlashda ishtirok etish uchun taklif o'zbek tilida va zaruriyatga qarab boshqa tillarda tayyorlanadi. Har qanday holatda ustunlik qiladigan til — bu o'zbek tili.

7.2 Tanlash ishtirokchilari tanlash bo'yicha elektron takliflarni o'zlarining shaxsiy kabinetlari orqali e'londa ko'rsatilgan muddatdan kechiktirmay taqdim etadilar.

Davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtirilgan tanlash taklifi ishtirokchi tomonidan tasdiqlanadi.

7.3 Tanlash taklifi bilan birgalikda ishtirokchilar eskizlar, rasmlar, chizmalar, fotosuratlar va boshqa hujjatlarni fayl sifatida joylashtirishlari mumkin*.

*Agar davlat xaridlari shartlarida ishtirokchilar tomonidan xarid obyektini bo'lgan tovarlarning namunasi taqdim etilishi nazarda tutilgan bo'lsa, xarid komissiyasi ularni ishtirokchilar tomonidan

topshirishning alohida tartibini belgilaydi.

Bunda ishtirokchilarning tanlash takliflari davlat xaridlarining elektron tizimida namunaviy shakllarga muvofiq hujjatlarni biriktirish orqali taqdim etiladi. Ishtirokchining tanlash takliflarida ko'rsatilgan ma'lumotlar biriktirilgan hujjatlardagi ma'lumotlarga mos kelishi kerak.

7.4 Tanlash takliflarini ochish muddati yetib kelgunga qadar ular elektron tanlash ishtirokchilari, shu jumladan xarid komissiyasi mas'ul kotibi va a'zolari tomonidan qurilishiga yo'l qo'yilmaydi, bundan ushbu takliflarni taqdim etgan ishtirokchi mustasno. Mazkur talabning bajarilishiga operator javobgar hisoblanadi.

7.5 Elektron tanlash ishtirokchisi:

- bitta lotga faqat bitta tanlash taklifini berishga haqli

- taqdim etilayotgan axborot (ma'lumot) va hujjatlarning haqiqiyligi va to'g'riligi uchun javob beradi;

7.6 Joylashtirilgan e'londa ko'rsatilgan muddat va vaqtda elektron tizim tanlash takliflarini qabul qilishni to'xtatadi.

7.8 Ishtirokchining texnik taklifi quyidagi hujjatlarni o'z ichiga olishi lozim:

- Ishtirokchi malakasi ya'ni O'tgan uch yil mobaynida amalga oshirilgan shu kabi ishlarda ishtirokchining tajribasi (Portfolio);

- Ishtirokchining 4-son shaklga muvofiq moliyaviy ko'rsatkichlari taqdim etilganligi ya'ni moliyaviy holati.;

- Ishtirokchi tomondan taqdim qilingan tovar (ish, xizmat)ning texnik taklifi Tanlov shartida belgilangan texnik tavsifga muvofiqligi (6-son shakl);

- Tanlash ishtirokchilari tomonidan korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha kafolat xati;

-Tanlash ishtirokchilari tomonidan taqdim etiladigan kafolat xati:

1. Ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha majburiyatlar bajarilganligi;

2. Qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik bosqichida ishtirokchining holati;

3. Ishtirokchining buyurtmachi bilan sud yoki hakamlilik muhokamasi bosqichidagi holati;

4. Ishtirokchi ofshor zonalarda ro'yxatdan o'tkazilganligi yuzasidan kafolat xati.

- Ishtirokchining tanlashga qatnashish yuzasidan 1-son shaklga muvofiq ariza hamda ishtirokchining 3-son shaklga muvofiq umumiy ma'lumoti.

7.9 Ishtirokchining narx taklifi elektron tizimning tegishli bo'limiga kiritiladi.

8 Tanlash takliflarini taqdim etish muddatini uzaytirish

8.1 Zarur bo'lgan hollarda buyurtmachi tomonidan tanlash takliflarini berish muddati uzaytirilishi yoki elektron tanlash ishtirokchilariga tanlash takliflari qabul qilinishi muddati xarid komissiyasi qarori bilan ma'lum vaqtga uzaytirish taklifi bilan murojaat qilishi mumkin.

8.2 Buyurtmachi xarid komissiyasi bilan kelishilgan holda tanlashda ishtirok etish uchun takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida bir ish kuni oldin tanlash hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli. Tovarning (ishning, xizmatning) nomini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. Bunda ushbu tanlashda takliflar berish tugaydigan muddat kamida uch ish kuniga uzaytiriladi. Shu bilan bir vaqtda, agar e'londa ko'rsatilgan axborot o'zgartirilgan bo'lsa, tanlash o'tkazish to'g'risidagi e'longa o'zgartishlar kiritiladi

9 Elektron tanlash natijalarini

9.1 Elektron tizim eng past narx usulidan foydalangan holda tanlash takliflarining texnik qismini baholash natijalariga ko'ra elektron

sarhisob qilish

tanlashda ishtirok etishni davom ettirishga ruxsat berilgan ishtirokchilar orasidan eng past narxni taklif etgan ishtirokchini avtomatik ravishda g'olib sifatida aniqlaydi.

Zaxira ijrochisini aniqlash: g'olibdan keyingi 2 — o'rinni egallagan Ishtirokchi Operator tomonidan avtomatik ravishda zaxira ijrochi sifatida belgilanadi.

9.2 Quyidagi hollarda tanlash o'tkazilmagan deb topiladi:

- agar tanlashda bitta ishtirokchi ishtirok etgan yoki hech kim ishtirok etmagan bo'lsa;

- agar xarid komissiyasi texnik baholash bosqichida barcha takliflarni rad etgan bo'lsa yoki faqat bitta taklif tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq kelsa. Bunday holatda buyurtmachi tanlashni ayni o'sha shartlarda hamda tovarga (ishga, xizmatga) doir ayni o'sha mezonlarga va talablarga muvofiq takroran amalga oshirishi shart.

9.3 Xarid komissiyasi a'zolari elektron tizimda avtomatik ravishda shakllangan yig'ilishning elektron bayonnomalarini ERIdan foydalangan holda tasdiqlaydi. Elektron bayonnomadan ko'chirma elektron tizimda avtomatik ravishda e'lon qilinadi.

9.4 Elektron tanlashning istalgan ishtirokchisi tanlash takliflarini ko'rib chiqish va baholash bayonnomasi e'lon qilinganidan so'ng Buyurtmachiga elektron tanlash natijalari bo'yicha tushuntirishlarni taqdim etish to'g'risida so'rov yuborishga haqli.

Buyurtmachi bunday so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran uch ish kuni ichida elektron tanlash ishtirokchisiga tegishli tushuntirishlarni taqdim etishi shart

10 Boshqa shartlar

10.1 Elektron tanlash ishtirokchisi tanlash hujjatlaridagi talablarni tushuntirish talabi bilan buyurtmachiga ochiq elektron chat orqali tanlash takliflarini berish muddati tugaydigan sanadan kamida ikki ish kuni oldin so'rov yuborishga haqli.

Mazkur so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran ikki ish kuni ichida Buyurtmachi, agar ushbu so'rov Buyurtmachiga takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida ikki ish kuni oldin kelib tushgan bo'lsa, tanlash bo'yicha Xarid qilish hujjatlarining qoidalariga doir tushuntirishlarni yuboradi. Tanlash bo'yicha Xarid qilish hujjatlarining qoidalariga doir tushuntirishlar ularning mazmun-mohiyatini o'zgartirmasligi kerak.

10.2 Elektron tanlash ishtirokchisi tanlash takliflarini berish muddati tugaguniga qadar berilgan tanlash taklifini qaytarib olishga yoki unga o'zgartirishlar kiritishga haqli.

10.3 Buyurtmachi g'olib bo'lgan taklif akseptiga qadar istalgan vaqtda davlat xaridini bekor qilish huquqiga ega. Davlat xaridi bekor qilingan taqdirda Buyurtmachi bunday qaror qabul qilingandan keyin uch ish kuni ichida elektron tizim orqali maxsus axborot portalida mazkur qarorning asoslantirilgan sabablarini e'lon qiladi

11 Tanlash natijalari bo'yicha shartnoma tuzish

11.1 Elektron tanlash natijalari bo'yicha shartnoma tanlash hujjatlarida va tanlash g'olibi taklifida ko'rsatilgan shartlar asosida g'olib aniqlangan vaqtdan boshlab 10 (o'n) ish kunidan kechiktirmasdan elektron hujjat shaklida tuziladi.

Shartnoma tomonlarning vakillari tomonidan qog'oz ko'rinishida hamda elektron raqamli imzolari bilan tasdiqlanadi va shartnomalarning yagona reyestriga kiritiladi.

Tanlash takliflarini baholash ketma-ketligi:

Tanlash takliflarini baholash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- ishtirokchining malaka talablarga muvofiqligini baholash (e'longa joylangan lotning malaka bo'limida);

- tanlash taklifining tanlash hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga mos ravishda rasmiylashtirilganligini tekshirish (1-son jadval);

- tanlash taklifining texnik qismini baholash (2-son jadval);

- tanlash taklifining narx qismini baholash (3-son jadval).

Bunda elektron tizim tanlash taklifining malaka, texnik va narx qismlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlarni tanlash taklifining oldingi qismi baholanishi yakunlangandan so'ng ketma-ketlik bilan oshkor qilinishini ta'minlaydi

**Elektron tanlashda ishtirok etish uchun ishtirokchilar tomonidan
rasmiylashtiriladigan hujjatlar
RO'YXATI**

1-son jadval

T/r	Tanlashda ishtirok etish uchun ishtirokchilar tomonidan tuziladigan hujjatlar va ma'lumotlar	Izoh,	Ishtirokchini chetlashtirish uchun asos
1	Xarid komissiyasi raisi nomiga elektron tanlashda ishtirok etish uchun ariza (<i>1-son shakl</i>)	1-son shakl muvofiq rasmiylashtiriladi	Xarid komissiyasi qaroriga ko'ra
2	Ishtirokchining davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjat	Hujjat mavjud bo'lmagan taqdirda, ishtirokchi keyingi bosqichga qo'yilmaydi	Xarid komissiyasi qaroriga ko'ra
3	Quyidagilarni tasdiqlovchi kafolat xati:		
	<ul style="list-style-type: none"> - ishtirokchi qayta tashkil etish (bo'linish, birlashish) tugatish bosqichida emasligini; - Buyurtmachi bilan sud yoki hakamlik muhokamasida ishi ko'rib chiqilmayotganligini; - Ishtirokchining ofshor zonalarda ro'yxatdan o'tkazilmaganligini; - Buyurtmachi bilan avval tuzilgan shartnomalar bo'yicha lozim darajada bajarilmagan majburiyatlari o'qligi; - ishtirokchining ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha zarur darajada bajarilmagan majburiyatlarining mavjud emasligini; 	2-son shakl muvofiq rasmiylashtiriladi	Xarid komissiyasi qaroriga ko'ra
4	Tanlash ishtirokchisi haqida umumiy ma'lumot	3-son shakl muvofiq rasmiylashtiriladi	Xarid komissiyasi qaroriga ko'ra
5	Ishtirokchining moliyaviy ahvoli to'g'risida ma'lumot	4-son shakl muvofiq rasmiylashtiriladi	Xarid komissiyasi qaroriga ko'ra
6	Korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ariza	5-son shakl muvofiq rasmiylashtiriladi	Qonunning 67- moddasi

ISHTIROKCHINING BLANKASIDA

2024-yil _- ____ Dagi
_____ -son

Xarid komissiyasi

ARIZA

____-sonli _____ (*tanlash predmeti nomi*) yetkazib berish bo'yicha tanlash hujjatlarini, so'rovlarimizga olingan javoblarni o'rganib chiqib, biz, quyida imzo chekuvchi (*tanlash ishtirokchisi nomi*), tanlash hujjatlariga muvofiq elektron tanlashda ishtirok etish niyatini bildiramiz.

Shu munosabat bilan, quyidagi hujjatlarni yubormoqdamiz:

1. Elektron tanlash ishtirokchisi haqida umumiy ma'lumot;
2. ____ varaqda malaka hujjatlari to'plami (varaqda soni ko'rsatilsin, broshyuralar, bukletlar, kompakt-disklar va boshqalar taqdim etilganda, ularning miqdori ko'rsatilsin);
3. Texnik taklif (varaqda soni ko'rsatilsin, broshyuralar, bukletlar, kompakt-disklar va boshqalar taqdim etilganda, ularning miqdori ko'rsatilsin);
4. Boshqa hujjatlar (*boshqa hujjatlar taqdim etilgan taqdirda, nomi va varaqaning sonini ko'rsating*).

Taklifni tayyorlash uchun mas'ul shaxsning to'liq F.I.Sh.:

Bo'flanish uchun telefon/faks: _____

Elektron pochta manzili: _____

Rahbar yoki vakolatli shaxsning F.I.Sh. va imzosi

MU.

ISHTIROKCHINING BLANKASIDA

2024-yil _- _____Dagi
_____ -son

Xarid komissiyasi

KAFOLAT XATI

Ushbu xat bilan _____
(*ishtirokchi nomi*)

- Qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik bosqichida emasligini;
- _____ (*buyurtmachi nomi*) bilan sud yoki arbitraj muhokamasi holatida emasligini;
- Ishtirokchining ofshor zonalarda ro'yxatdan o'tkazilmaganligini;
- Ishtirokchining ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha zarur darajada bajarilmagan majburiyatlarining mavjud emasligini;
- _____ (*buyurtmachi nomi*) bilan avval tuzilgan shartnomalar bo'yicha lozim darajada bajarilmagan majburiyatlari yukligini tasdiqlaymiz.

Buyurtmachining mas'ul xodimi imzosi _____

Imzolar:

Rahbarning F.I.Sh. _____

Bosh buxgalterning (moliya bo'limi boshlig'i) F.I.Sh. _____

Huquqshunos F.I.Sh. _____

MU.

ISHTIROKCHINING BLANKASIDA

Tanlash ishtirokchisi to'g'risida umumiy ma'lumot

1	Tashkiliy-huquqiy shaklini ko'rsatgan holda yuridik shaxsning to'liq nomi	
2	Ro'yxatga olinganligi to'g'risida ma'lumot (ro'yxatga olish sanasi, ro'yxatga olish raqami, ro'yxatdan o'tkazuvchi organ nomi)	
3	Yuridik manzil	
4	Bog'lanish uchun telefon, faks, e-mail	
5	To'liq bank rekvizitlari	
6	Faoliyatining asosiy yo'nalishlari	
7	Ta'sischi to'g'risida ma'lumot	

Talab etilayotgan yoki shunga o'xshash xizmatni amalga oshirish tajribasi haqida ma'lumot

T/r	Yetkazib berish predmeti nomi	Xaridorning nomi, uning manzili va aloqa ma'lumotlari	Yetkazib berish sanasi	Imzo

Qo'shimcha ma'lumotlar: bajariladigan ishlar hajmi, mijozlar fikri, shunga o'xshash mahsulot va xizmatlar bo'yicha tasdiqlangan ma'lumotlar, portfolio va boshqalar.

(vakolatli shaxs imzosi) (vakolatli shaxsning F.I.Sh va lavozimi)

M.U.

Sana: 20__y.

ISHTIROKCHINING BLANKASIDA

TANLASH ISHTIROKCHISINING MOLIYAVIY XOLATI (*)

Tanlash ishtirokchisining nomi: _____

(valyutani ko'rsating)

AKTIV	2021 y.	2022 y.	2023 y.	PASSIV	2021 y.	2022 y.	2023 y.
I. O'zoq muddatli aktivlar				I. O'z mablag'lari manbalari			
Asosiy vositalar (qoldik qiymati)				Ustav kapitali			
Nomoddiy aktivlar (qoldik qiymati)				Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)			
				Maqsadli tushumlar			
Qimmatli qog'ozlar				P.Majburiyatlar			
Kapital qo'yilmalar				O'zak muddatli majburiyatlar, qarzlar			
Investitsiyalar				Kreditor qarzdorlik:			
II. Joriy aktivlar				shu jumladan, muddati o'tgani			
Ishlab chiqarish zaxiralari				shu jumladan, budjet bo'yicha qarzdorlik			
Tugallanmagan ishlab chiqarish							
Tayyor mahsulot				shu jumladan, ish haqi bo'yicha qarzdorlik			
Debitor qarzdorlik							
Pul mablag'lari							
Boshqa joriy aktivlar							
Balans aktivi bo'yicha jami (I.+ II. bo'limlar)				Balans passivi bo'yicha jami (I. + II. bo'limlar)			

MOLIYAVIY NATIJALAR

(valyutani ko'rsating)

Ko'rsatkichlar nomi	2021y.	2022y.	2023y.
1. Sotishdan sof tushum			
2. Sotilgan mahsulotlarning tannarxi			
4. Ma'muriy xarajatlar			
5. Boshqa xarajatlar			
6. Boshqa daromadlar			
7. Foyda soligini tulagunga qadar foyda (zarar)			
8. Foyda soligi			
9. Foyda (zarar)			

Rahbar _____ Bosh hisobchi _____

MU.

Sana: 20 __ y. " _ " _____

(*) Moliyaviy holati boshqa mezonlar bilan belgilanadigan kompaniyalar uning moliyaviy holatini belgilaydigan boshqa shaklni taqdim etishlari mumkin.

ISHTIROKCHINING BLANKASIDA

Xarid komissiyasi

Korrupsiya ko‘rinishlariga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha
ARIZA

Ushbu xat bilan _____ :
(kompaniya nomi)

a) :

- O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni talablariga rioya etish;
- Buyurtmachi tomonidan biror-bir xatti-harakatning sodir etilishiga, qaror qabul qilinishiga yoki biror-bir Xarid qilish tartib-taomilining qo‘llanilishiga ta’sir o‘tkazish maqsadida Buyurtmachining yoki boshqa davlat organining istalgan hozirgi yoki sobiq mansabdor shaxsiga yoki xodimiga har qanday shakldagi haqni, ishga yollash to‘g‘risidagi taklifni yoxud istalgan boshqa qimmatbaho ashyoni yoki xizmatni bevosita yoxud bilvosita taklif qilmaslik, bermaslik yoki berishga rozilik bildirmaslik;
- raqobatga qarshi harakatlarni sodir etmaslik, shuningdek affillanganlik hollariga yo‘l qo‘ymaslik;
- firibgarlik, ma’lumotlarni soxtalashtirish va korrupsiyani oldini olish;
- yolg‘on yoki soxta hujjatlarni taqdim etmaslik, ayni bitta lotda ishtirok etgan affillangan shaxslar yoki manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida ma’lumotlarni ochib berish majburiyatini o‘z zimmasiga olishini;

b) :

- Buyurtmachi bilan manfaatlar to‘qnashuviga ega emasligini, ijrochini tanlash bo‘yicha qaror qabul qilish huquqiga ega yaqin qarindoshlarning mavjud emasligini;
- narxlarni yoki ishtirokchilarni saralash natijalarini buzib ko‘rsatish maqsadida boshqa ishtirokchilar bilan oldindan til biriktirmasligini tasdiqlaydi.

Imzolar:

Rahbar F.I.Sh. _____

Bosh hisobchi (moliya bo‘limi boshlig‘i) F.I.Sh. _____

Huquqshunos F.I.Sh. _____

MU.

ISHTIROKCHINING BLANKASIDA

_____ (tanlash raqami va predmetini ko'rsating) tanlash
savdolari bo'yicha
TEXNIK TAKLIF

2024-yil _- ____ Dagi
_____ -son

Xarid komissiyasi

_____ ni (tanlash predmeti nomi) yetkazib berish bo'yicha ____-sonli tanlash savdolari hujjatlarini va so'rovlarimizga olingan javoblarni o'rganib chiqib, biz, quyida imzo chekuvchi _____ (tanlash ishtirokchisi nomi), _____ (ishlab chiqaruvchini ko'rsating) tomonidan ishlab chiqarilgan (taklif etilayotgan mahsulot nomini, brend yoki modelini ko'rsating) miqdorida yetkazib berishni taklif qilamiz.

Biz ushbu texnik taklifga to'liq rioya qilgan holda, tanlash G'olibi bilan tuziladigan shartnoma bo'yicha tovarlarni yetkazib berish majburiyatini olamiz.

Biz tanlash takliflarini berish muddatining oxirgi sanasi sifatida belgilangan kundan boshlab 60 kun davomida ushbu taklif shartlariga rioya qilishga rozimiz. Ushbu tanlash taklifi biz uchun majburiy bo'lib qoladi va ko'rsatilgan muddat tugashidan oldin istalgan vaqtda qabul qilinishi mumkin.

Ilovalar:

- ____ varaqda taklif etilayotgan mahsulotlarning texnik tavsiflarining qiyosiy jadvali;
- tovar ishlab chiqaruvchisi ishonchnomasi (6-son shakl) yoki ishlab chiqaruvchidan avtorizatsiya xati (agar tanlash ishtirokchisi taklif qilinayotgan tovarning ishlab chiqaruvchisi hisoblanmasa);
- texnik hujjatlar (broshyuralar, texnik ma'lumotlar varag'i, foydalanish yo'riqnomalari va boshqalar yoki taklif qilinadigan mahsulotning to'liq va batafsil tavsifini o'z ichiga olgan boshqa hujjatlar).

(vakolatli shaxs imzosi)

(vakolatli shaxs lavozimi va F.I.Sh.)

M.U.

Sana: 20__y. "____" _____

Taklif etilayotgan mahsulotlarning texnik tavsiflarining qiyosiy jadvali

T/r	Parametr nomi	Texnik topshiriq talablaridagi ko'rsatkich	Ishtirokchining taklifidagi ko'rsatkich	Izoh (talablarga javob beradi / talablarga javob bermaydi)
	<i>Tanlash (yetkazib beriladigan tovar nomi)</i>			
1				
2				

Ishtirokchi rahbarining yoki vakolatli shaxsning imzosi va F.I.Sh.

MU.

Sana: 20__y. "___" _____

II. TANLASH HUJJATLARINING TEHNIK QISMI

Tanlash takliflarini baholash metodi va mezonlari

Ball usuli - texnik baholashdan o'tgan va o'tish balidan o'tgan eng yuqori ball to'plagan ishtirokchi g'olib deb topiladi.

2-IIova

Dastlabki malakaviy baholash tartibi va mezonlari

Xarid qilish tartib-taomilining amalga oshirish uchun ruxsat berilgan ishtirokchilarning dastlabki malaka tanlovi tartibi va mezonlari:

E'longa joylangan lotning malaka bo'limida ishtirokchilar tomonidan joylangan barcha hujjatlarning malaka talablarga muvofiqligini baholanadi.

Malaka talablaridan o'tgan ishtirokchilar Texnik baholash qismiga o'tkaziladi.

Malaka talablaridan o'tmagan deb topilgan Tanlash ishtirokchilari chetlashtiriladi.

Tanlash ishtirokchilarining Texnik baholash mezonlari

Tanlash ishtirokchilarining texnik baholash 2-son jadvalga asosan ko'rsatilgan mezonlariga asosan baholanadi.

Tanlash ishtirokchilarining texnik baholashdan o'tmagan takliflari (ball qo'yish natijalari bo'yicha 0 ball to'plaganlar) chetlashtiriladi.

Tanlash ishtirokchilari jami 55 ballik baholash tizimidan kamida 45 ball to'plashlari zarur.

2-son jadval

No	Mezon	Baholash	Toifa vazni (Ball)	Izoh
Ishtirokchilarning texnik taklifini baholash				
Umumiy ball			55	
1	Ishtirokchi malakasi ya'ni o'tgan uch yil mobaynida amalga oshirilgan shu kabi ishlarda ishtirokchining tajribasi (Portfolio).	Bor / yo'q (ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumot asosida amalga oshiriladi)	25	Yaxshi – 25 Ball (Malakasi uch yildan ko'p bo'lsa) Qoniqarsiz – 0 Ball (Malakasi yo'q bo'lsa)
2	Ishtirokchining 4-son shaklga muvofiq moliyaviy ko'rsatkichlari taqdim etilganligi ya'ni moliyaviy holati.	Bor / yo'q (ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumot asosida amalga oshiriladi)	5	Yaxshi – 5 Ball (4-son shaklga muvofiq taqdim etilsa) Qoniqarsiz – 0 Ball (4-son shaklga muvofiq taqdim etilmasa)
3	Ishtirokchi tomondan taqdim qilingan tovar (ish, xizmat)ning texnik taklifi Tanlash shartida belgilangan texnik tavsifga muvofiqligi (6-son shakl).	Mos / Mos emas (ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan namuna asosida amalga oshiriladi)	10	Yaxshi – 5 Ball (6-son shaklga muvofiq taqdim etilsa) Qoniqarsiz – 0 Ball (6-son shaklga muvofiq taqdim etilmasa)
4	Tanlash ishtirokchilari tomonidan korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha kafolat xati.	Bor / yo'q (ishtirokchining kafolat xati asosida amalga oshiriladi)	5	Yaxshi – 5 Ball (taqdim etilsa) Qoniqarsiz – 0 Ball (taqdim etilmasa)
5	Tanlash ishtirokchilari tomonidan taqdim etiladigan kafolat xati:	Bor / yo'q (ishtirokchining kafolat xati asosida amalga oshiriladi)	5	Yaxshi – 5 Ball (To'liq taqdim etilsa) Qoniqarsiz – 0 Ball

	<p>1. Ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha majburiyatlar bajarilganligi;</p> <p>2. Qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik bosqichida ishtirokchining holati;</p> <p>3. Ishtirokchining buyurtmachi bilan sud yoki hakamlik muhokamasi bosqichidagi holati;</p> <p>4. Ishtirokchi ofshor zonalarda ro'yxatdan o'tkazilganligi yuzasidan kafolat xati.</p>			(Taqqim etilmasa)
6	<p>Ishtirokchining tanlashga qatnashish yuzasidan 1-son shaklga muvofiq ariza hamda ishtirokchining 3-son shaklga muvofiq umumiy ma'lumoti.</p>	<p>Bor / yo'q (<i>ishtirokchining kafolat xati asosida amalga oshiriladi</i>)</p>	5	<p>Yaxshi – 5 Ball (To'liq taqqim etilsa) Qoniqarsiz – 0 Ball (Taqqim etilmasa)</p>

III. TAKLIFLARNING NARX QISMINI KO'RIB CHIQISH

3-son jadval

Tanlash taklifining miqdoriy ko'rsatkichlarini, shu jumladan, narx qismini baholash davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

Tanlash taklifining narx qismiga berilgan ball qiymati

T/r	Mezon	Baholash	Izoh
1	Eng past narx	Eng past narx — 30 ball	Narxlarning eng past narxga foiz sifatida o'sishi, eng past narx punktlari uchun bog'langanlar soniga bog'liq ravishda pasayishi sifatida baholanadi

T/r	Nomi	Soni	Narxi	Qiymati
1	fitnes-uskunalari to'plami	37 to'plam	181 100	181 100
Jami:				181 100 EUR